



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 1-SON

HUMANSCIENCES.UZ

№ 1 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.

E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co

ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.

E-mail: docravshanniyazov@gmail.com

ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

O'zbekiston.

E-mail: z.sanakulov@cspu.uz

ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: b_muxammed@karsu.uz

ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru

ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru

ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz

ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru

ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Suyarov Maxmudjon

YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI TARIXINI YORITUVCHI YOZMA MANBALAR

TAHLILI.....5-10

Azimova Maftuna

FARG'ONA VODIYSIDA O'TISH DAVRI BOSQICHLARIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING
MODDIY-TEXNIK HOLATI.....

11-17

Турдумуратов Янгибой

ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ СКОТОВОДОВ СУРХАН-ШЕРАБАДСКОГО ОАЗИСА ПО
ЭТНОТЕРРИТОРИАЛЬНОМУ РАСПОЛОЖЕНИЮ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

18-25

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Abduraxmanova Laylo

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMINI

TAKOMILLASHTIRISH.....26-31

Hamrayev Abdulxofiz

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA UNING INSON RESURSLARI MENEJMENTIGA

TA'SIRI.....32-36

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI

TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TAHLILNING AHAMIYATI37-43

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Eshiniyazov Berdiniyaz

DAVLAT BOSHQARUVIDA AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISHNING

STRATEGIK AHAMIYATI44-52

23.00.00–SIYOSIY FANLAR–POLITICAL SCIENCES*Article / Original Paper***DAVLAT BOSHQARUVIDA AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLIHNING STRATEGIK AHAMIYATI****Eshiniyazov Berdiniyaz Ansatbay uli**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Xo'jayli tumani MMTVBga qarashli 25-sonli maktabning iqtisodiyot fani o'qituvchisi

Email: berdiniyaz.eshiniyazov@ndpi.uz

ORCID: 0009-0006-9211-5682

UDK 311.312 (575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2026 yil yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasida o'tkazilishi rejalashtirilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining davlat boshqaruvini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ro'yxatga olish jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish, resurslarni manzilli taqsimlash va hududiy rivojlanishdagi o'rnini o'rganishdan iborat. Maqolada aholini ro'yxatga olishning tarixiy tajribasi va zamonaviy raqamli texnologiyalarning (GIS, onlayn platformalar) bu jarayondagi ahamiyati tahlil qilingan. Natijada, ro'yxatga olish ma'lumotlarining davlat siyosatini shakllantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishdagi ahamiyati haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, aholini ro'yxatga olish, qishloq xo'jaligi, rejalashtirish, raqamli statistika, hududiy rivojlanish, davlat boshqaruvi.

THE IMPORTANCE OF POPULATION AND AGRICULTURAL CENSUS IN OUR COUNTRY**Eshiniyazov Berdiniyaz Ansatbay uli**

Student of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Economics teacher at school No. 25 of the Khojaly district State Educational Service

Annotation. This article analyzes the strategic importance of the population and agricultural census planned to be conducted in the Republic of Uzbekistan in January-February 2026 for the development of public administration. The main objective of the research is to study the role of census processes in socio-economic planning, targeted resource allocation, and regional development. The article examines the historical experience of population censuses and the significance of modern digital technologies (GIS, online platforms) in this process. As a result, scientific insights are provided on the importance of census data in shaping state policy, ensuring food security, and increasing investment attractiveness.

Keywords: economics, population census, agriculture, planning, digital statistics, regional development, public administration.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i1v2y2026/n07>**KIRISH**

Bugungi zamonaviy sharoitda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi samarali boshqaruv va puxta rejalashtirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda davlat ishonchli va tizimli statistik ma'lumotlarga tayanadi. Aholi va qishloq xo'jaligi to'g'risida aniq

ma'lumotlarning mavjudligi, birinchi navbatda, davlat siyosatini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu ma'lumotlar hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanishda muhim rol o'ynaydi.

Aholining soni, tarkibi (etnik, diniy, jinsiy) va joylashuvi, shuningdek, qishloq xo'jaligi subyektlari, yer resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlari to'g'risida to'liq axborotning mavjudligi ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning samaradorligini oshiradi. Shu bois, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonlari joriy holatni baholash, hududiy tafovutlarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash uchun muhim statistik manba hisoblanadi. Mamlakatimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni puxta rejalashtirish uchun zarurlik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentyabrdagi PQ-173-sonli "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISH TADBIRINI O'TKAZISH TO'G'RISIDA"gi farmoni qabul qilinib, ushbu farmonda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonlarini takomillashtirish va statistik ma'lumotlarning ishonchligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Farmonda quyidagi maqsad va vazifalar belgilangan:[2]

(a) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun 38 million aholining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati, faoliyat turi, daromad manbalari to'g'risida Yevropa statistiklari konferensiyasining 2020-yildagi tavsiyalari asosida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

(b) 26 million gektar qishloq xo'jaligi yerlarining foydalanish holatini o'rganish, chorva mollari va parrandalar sonini aniqlash orqali qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan yillik 25,6 trillion so'm, jumladan, 2,2 trillion so'm budget mablag'lari samarali sarflanishini, sohadagi xizmatlar hajmini aniqlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur ma'lumotlar to'plamini yaratish;

(v) aholi va qishloq xo'jaligining o'sish tendensiyalarini hududlar kesimida aniq hisob-kitob qilgan holda ijtimoiy soha obyektlarini kengaytirishga yo'naltirilayotgan yillik 25,2 trillion so'm mablag'ning manzilli sarflanishini ta'minlash;

(g) respublikaning har bir ma'muriy-hududiy birligi va mahallalar kesimida aholining turli tavsiflari to'g'risida yagona statistik uslubiyot asosida xalqaro darajada taqqoslash mumkin bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirish orqali mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini va xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash.

Ushbu maqolada aholini ro'yxatga olishning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish, uning zamonaviy davlat boshqaruvidagi o'rni va ahamiyatini hamda ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi mohiyatini ochib berish maqsad qilib olindi.

ASOSIY BO'LIM

Aholini ro'yxatga olishning nazariy-metodologik asoslari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni uzoq yillardan buyon ko'plab mahalliy va xalqaro olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, demografiya fanining shakllanishida Jon Graunt va Tomas Maltus kabi xalqaro miqyosdagi olimlarning xizmatlari behisob. MDH davlatlari olimlaridan D.I. Valentey va A.G. Vishnevskiy aholini ro'yxatga olishni davlatning strategik ijtimoiy siyosati deb baholagan.

O'zbekistonda aholishunoslik va statistika sohasini rivojlantirishga akademik Q.X. Abdurahmonov, boshqada olimlardan R.A. Ubaydullaeva va M.R. Bo'riyivalar shuningdek, g.f.n.,doc. G.B. Utepova[7]ning ilmiy ishlarida ham aholishunoslik masalalari bo'yicha tadqiqotlar qilingan.

Aholini ro'yxatga olish har bir mamlakat uchun barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim statistik va demografik vosita hisoblanadi. U jamiyatdagi aholining soni, yoshi, jinsi, milliy tarkibi, bilim darajasi va boshqa ko'plab omillar haqida to'liq va tizimli ma'lumot beradi. Shu bois, xalqaro miqyosda bu jarayon "millatning demografik pasporti" deb ataladi.[9]

Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Bobilda miloddan avvalgi 3000 yillikda aholining ro'yxatga olinishi haqida tarixiy manbalar mavjud. Rimda Servi Tull davrida esa, fuqarolar va ularning mol-mulki har besh yilda maxsus nazoratchilar (senzorlar) tomonidan muntazam ravishda ro'yxatga olingan.[5]

Qadimgi davrlarda aholini ro'yxatga olish asosiy 2 maqsadda olib borilgan, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Soliq tizimini shakllantirish uchun;

Qadimgi davrlarda aholini ro'yxatga olish, birinchi navbatda, soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan. Ro'yxat orqali xo'jaliklarning mol-mulki, yer maydonlari va boshqa moddiy boyliklari hisobga olingan hamda shu manbalar asosida soliq miqdori belgilanib, davlat byudjeti barqarorligi ta'minlangan.

2. Harbiy maqsadda:

Shuningdek, aholini ro'yxatga olish harbiy xizmatni rejalashtirishda muhim o'rin tutgan. Ro'yxat ma'lumotlari orqali harbiy xizmatga yaroqli erkaklar soni aniqlanib, ularga yuklatiladigan majburiyatlar belgilanib, davlatning mudofaa qobiliyati mustahkamlangan.

Yana bir muhim jihati shundaki, dastlabki ro'yxatga olishda ma'lumotlar asosan erkaklardan to'plangan, chunki o'sha paytlarda erkaklarning iqtisodiy o'rni yuqori bo'lgan, soliq to'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari ishtirok etgan.[6]

Bu davrda aholini ro'yxatga olish davlat boshqaruvining iqtisodiy va harbiy asosini shakllantirdi. Ro'yxat natijalari orqali davlat soliq tushumlarini barqaror boshqarish va harbiy kuchni rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Aholining eng birinchi rasmiy keng ko'lamli ro'yxati 1790-yilda AQShda, 1800-yilda Shvetsiya va Finlyandiyada, 1801-yilda Angliya, Daniya, Norvegiya va Fransiyada bo'lib o'tgan.[8]



1-rasm: Amerika Qo'shma Shtatlari Federal aholini ro'yxatga olish jarayoni

Lekin, bu aholi ro'yxatlari juda sodda shaklda bo'lib, uzoq muddatga cho'zilgan. AQShda bo'lib o'tgan aholini ro'yxatga olish ishlari 18 oy davom etganligi haqida malumotlar bor. Ushbu ro'yxatga olish natijalari quyidagicha bo'lgan:[10]

- AQSH aholisi: 3 929 214 kishi
 - Rasmiy shtatlar soni: 13 ta.
 - Aholining o'rtacha yoshi: O'sha yil uchun yo'q
 - Qonuniy rezident maqomini olayotgan immigrantlar: O'sha yil uchun ma'lumot yo'q
- Eng yirik shaharlar: Nyu-York, NY (Aholi soni: 33131), Filadelfiya, Pensilvaniya (28522), Boston (18320).

Bu davrda aholini ro'yxatga olish boshqaruvning oddiy hisob-kitob shaklidan ilmiy-statistik tizim darajasiga ko'tarildi. Ro'yxatga olish natijalari asosida ijtimoiy siyosat, shaharsozlik va mehnat bozorini rejalashtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida aholini ro'yxatga olish davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Bu davrda ro'yxatga olish natijalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish, mehnat resurslaridan foydalanish, urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish hamda demografik tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada aholini ro'yxatga olish ilmiy dalillarga asoslangan davlat siyosatini shakllantirishda asosiy axborot manbayiga aylandi.

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha zamonaviy bosqich XX asrning o'rtalaridan boshlangan va o'sha davrda bir qator Osiyo mamlakatlarida aholi ro'yxatga olingan. XX asrning oxiriga kelib aholini ro'yxatga olish jahonning deyarli barcha hududini qamrab oldi. [8]

Bu davrda aholini ro'yxatga olish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ilmiy dalillar asosida shakllantirishga imkon berdi. Natijada, aholi joylashuvi, urbanizatsiya va mehnat resurslari tarkibi boshqaruv qarorlarida bosh omilga aylandi.

Hozirga kelib dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida aholi o'rtacha har o'n yilda kamida bir marta ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Xalqaro amaliyot shuni tavsiya etadi.

Respublikamizda aholini ro'yxatga olish: kecha va bugun

O'zbekiston hududida dastlabki aholini ro'yxatga olish 1897-yilda o'tkazilgan bo'lib, mazkur ro'yxat tadbiri ma'lumotlari XIX asr oxirida O'zbekistonda mavjud bo'lgan oilalar, aholi soni, aholining yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik hodisalar to'g'risida fikr yuritishga yordam bergan.

1-jadval.

1897-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirida aniqlangan aholi soni, Turkiston o'lkasining viloyatlari kesimida.[4]

T/r	Hududlar nomi	Xo'jaliklar soni	Jami aholi soni	Erkaklar	Ayollar
1	Farg'ona viloyati	309855	1572214	852919	719295
2	Samarqand viloyati	147534	860021	472443	387578
3	Sirdaryo viloyati	110417	642966	351100	291866
4	Amudaryo viloyati	33172	194473	101185	93288
5	Buxara a'mirligi.	426675	2134240	1114960	1019280
6	Xiva xonligi	91415	488967	259097	229888
	Jami	1 119 068	5 892 881	3 151 686	2 741 195

1897-yilda Turkiston hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish hududda aholining soni, yoshi, jinsi va etnik tarkibi bo'yicha dastlabki ilmiy-statistik ma'lumotlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu ro'yxat davlat boshqaruvi, soliq tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy demografik ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, ro'yxatga olish jarayonida bir qancha kamchiliklar mavjud bo'lib, ayrim hududlarda aholining to'liq qamrab olinmagani va ma'lumotlarning aniqligi yetarli darajada bo'lmagan. Shunga qaramasdan, 1897-yilgi aholini ro'yxatga olish keyingi demografik tadqiqotlar va statistika tizimining rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

1897-yili o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish Turkiston hududida ijtimoiy tuzumning haqiqiy manzarasini ochib berdi. Ro'yxat natijalari orqali hududlarda aholining etnik tarkibi, jinsiy salmog'i va joylashuv xususiyatlari aniqlandi. Bu ma'lumotlar soliq tizimi, ma'muriy-hududiy boshqaruv va ijtimoiy infratuzilmani rejalashtirishda muhim rol o'ynadi.

Shundan so'ng O'zbekiston hududida 1926, 1939, 1959, 1970, 1980 yillarda aholi ro'yxatga olingan.

1920-yilda sobiq SSSRda aholini va xalq xo'jaligini ro'yxatga olishga, markaziy statistika boshqarmasi demografik statistika boshlig'i Vasiliy Grigorovich Mixailovskiy rahbarlik qildi va mamlakat ichidagi kelishmovchiliklar sababli Belorussiya, Qrim, Uzoq Sharq shu jumladan Xiva, Buxoro va Turkistonda aholini ro'yxatga olish o'tkazilmaydi. Keyinroq ichki nizolar tugagandan so'ng xalq xo'jaligini tiklash boshlanadi, mamlakatda o'lim darajasi kamayib tug'ilish darajasi ortadi, sanoat rivojlanadi, shuning uchun ham aholining joylashuvi va tarkibida o'zgarishlar yuzaga keladi, shuning uchun 1920-yilda o'tkazilgan 10 yillik muddat tugamasa-da, 1926-yilda qayta ro'yxatga olish o'tkaziladi. Ro'yxat natijasiga ko'ra sobiq SSSRning jami aholisi 148 mln bo'lib, shundan qariyb 4.6 mln kishi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan.

1949-yilda aholini ro'yxatga olish rejalashtirilgan bo'lsa-da, urush oqibatidagi yo'qotishlar va qatag'on natijasida qurbon bo'lgan odamlarning xavfli yo'qotishlari ma'lum bo'lib qolmasligi uchun o'tkazilmaydi.

Oxirgi marta aholini ro'yxatga olish 1989 yilda o'tkazilib, o'sha paytda respublikamiz aholisi 19,7 million kishini tashkil etgan.[8]

Mustaqil respublikamizda yaqin kunlarda aholini va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ishlari bo'lib o'tishi rejalashtirilmoqda.

Prezidentimizning 2019-yil 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5655-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon asosida aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish konsepsiyasi tasdiqlandi va ushbu konsepsiya asosida O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, 2020-yil 16-martda 611-sonli qonun qabul qilinadi, shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 710-sonli qarori chiqqan. Vazirlar Mahkamasining 710-sonli qarori bilan 2021 yil 1-25 noyabr kunlari Respublikamizning Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida, Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida, Xorazm viloyati Xiva shahrida va Toshkent shahri Yashnobod tumanida aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish belgilanib, yuqorida qayd etilgan hududlarda aholi sinov tariqasida ro'yxatga olindi.[1,3,8]

To'liq aholini ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi PQ-173-sonli farmoniga muvofiq 2026-yil 15-yanvar holatiga ko'ra 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha o'tkazilishi belgilangan.

Farmonga muvofiq Respublika komissiyasi tuzilib unga quyidagi vazifalar yuklatilgan:[2]

(a) ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq chora-tadbirlarning o'z vaqtida hamda sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;

(b) ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni moliyalashtirish, ro'yxatga olish materiallariga ishlov berishni tashkil etish hamda uning yakuniy natijalarini e'lon qilish masalalariga doir takliflarni ko'rib chiqish;

(v) ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarni ularning mehnatiga haq to'lash masalalarini hal qilgan holda jalb etish ishlarini tashkil etish;

(g) ro'yxatga olish tadbiri doirasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Farmonning eng ijtimoiy jihati - shaxsiy ma'lumotlarning kafolatlanligidir. Aholidan olingan ma'lumotlar faqat statistik maqsadlarda ishlatilishi va boshqa hech bir davlat organi bu ma'lumotlardan jismoniy shaxsga qarshi foydalana olmasligi qa'tiy belgilangan. Bu aholining jarayonga ishonch bilan qatnashishiga zamin yaratadi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishdan oldin hozirgi kunda barcha joyda, butun mamlakat bo'ylab, mahallalar, ta'lim muassasalari, OAV orqali aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazilmoqda.

2026 yil yanvar-fevral oylarida o'tkazilishi belgilangan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Bu ro'yxatga olish ilk bor aholi va qishloq xo'jaligi to'g'risidagi ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida, yagona metodologiya asosida yig'ish imkonini beradi. Natijada, aholining yosh tarkibi, migratsiya jarayonlari, oilaviy ahvoli bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish, chorva mollari soni va mahsuldorlik imkoniyatlari to'g'risida aniq va ishonchli statistik ma'lumotlar shakllantiriladi.

Zamonaviy ro'yxatga olishning o'ziga xos jihati shundaki, u aholining faqatgina sonini aniqlash bilan cheklanmay, balki inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini — ya'ni ma'lumoti, kasbi va ko'nikmalarini ham baholaydi. Bu esa ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

2026 yilda o'tkaziladigan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri alohida ahamiyatga ega ekanligi, uni o'tkazishga ko'plab davlat organlari va tashkilotlari jalb etilganligi bilan ham bog'liq. Xususan, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Kadastr agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, respublikadagi barcha o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Din ishlari bo'yicha qo'mitasi hamda boshqa davlat organlari ro'yxatga olish jarayoniga jalb etilmoqda.

Bu holat aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish chorasi faqat statistik ma'lumot to'plash bilan cheklanib qolmasdan, davlat boshqaruvining barcha sohalarini qamrab olgan murakkab jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayoni ikki bosqishda amalga oshadi.[8] Bular quyidagicha.

1- Bosqish 15-31 yanvar kunlari, census.stat.uz sayti orqali.

2- Boshqish 4—28- fevral kunlari, “Mahalla yettiligi” a’zolari uyma-uy yurib, planshet orqali ro’yxatga olish savolnomasini to’ldiradi.

Ro’yxatga olishda fuqorolardan jami 71 ta savolga javob olinadi, ularning asosiy qismi ya’ni 54 savol aholiga oid, 17 ta savol qishloq xo’jaligiga oid savollar.

Aholi va qishloq xo’jaligini ro’yxatga olishda Census.stat.uz saytidan ONEID ro’yxatidan o’tish orqali onlayn tarzda ishtirok etish mumkin.

Quyidagi QR kodni skanerlash orqali Respublika statistika boshqarmasining, aholi va qishloq xo’jaligini ro’yxatga olishda ishtirok etishning barcha ketma-ketliklari haqidagi to’liq ma’lumotga ega bo’lish mumkin.



Manba: <https://youtu.be/tCSOwFds3Fc?si=X3NB9rOtjctyYTOW>

**2-rasm: Census.stat.uz saytidan onlayn ro’yxatdan o’tish bo’yicha video
qo’llanma**

O’zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaro yoki fuqaroligi bo’lmagan shaxslarning so’rovnoma ishtirok etishining asosiy 5 xil shakldan 4 tasini to’ldiradi, bular quyidagilar:

1-shakl: Yashash uchun foydalaniladigan turar joy xususiyatlari, ushbu turar joyda yashovchi uy xo’jaligi a’zolarining ro’yxati;

2-shakl: Shaxsga doir so’rovnoma;

3-shakl: O’zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun so’rovnoma;

5-shakl: jismoniy shaxslar uchun qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish bo’yicha so’rovnoma.

Bu so’rovnomalarning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishda, ro’yxatga olish asosiy ma’lumot hisoblanadi. Masalan, hududlarda maktablar, shifoxonalar, yo’llar, suv va energetika infratuzilmalarini barpo etish va modernizatsiya qilish loyihalari, shuningdek, mahalliy byudjetlarni adolatli taqsimlash aynan shu ma’lumotlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, ro’yxatga olish nafaqat aholi sonini aniqlash, balki resurslarni samarali boshqarish va hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish vositasidir.

- Ro’yxatga olish jarayoni aholining yosh tarkibi, jinsi, migratsiyasi, oila tarkibi va boshqa demografik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar hududlararo urbanizatsiya va migratsiya tendensiyalarini tushunishga yordam beradi, shuningdek, mehnat resurslarini rejalashtirish, pensiya va ijtimoiy himoya dasturlarini samarali boshqarish uchun alohida e’tiborga loyiq. Shu bilan birga, demografik ma’lumotlar orqali ijtimoiy siyosat va xizmatlarni mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish mumkin bo’ladi.

- Qishloq xo'jaligi ro'yxati fermer xo'jaliklari, yer maydonlari, hosil darajasi, chorva mollari va o'simlik yetishtirish bo'yicha ma'lumotlarni jamlaydi. Bu ma'lumotlar asosida suv resurslaridan samarali foydalanish, chorvachilik va dehqonchilik strategiyalarini shakllantirish, shuningdek, agrar sektorni rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mumkin. Shunday qilib, ro'yxatga olish agrar siyosatning asosiy statistik bazasini yaratadi va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

- Ro'yxatga olish jarayonida O'zbekistonning barcha asosiy vazirlik va idoralari ishtirok etadi, bu esa mamlakat boshqaruv tizimini integratsiyalashgan va samarali qiladi. Shu bilan birga, aholi va qishloq xo'jaligi ma'lumotlari favqulodda vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish, xavfsizlik va harbiy rejalashtirishni optimallashtirish uchun muhim manba bo'ladi.

Prezident farmonida ro'yxatga olishni o'tkazish uchun katta mablag' ajratilgan bo'lsa-da, raqamli texnologiyalarni (planshet, onlain so'rovnomalar) qo'llash orqali qog'ozbozlik va vaqt sarfini kamaytirish ko'zda tutilgan. Aholi va qishloq xo'jaligini bir vaqtda sinxron ro'yxatga olishning asosiy sababi - davlatning demografik ko'rsatgishlari va oziq-ovqat resurslarini bir-biri bilan manzilli bog'lash, shu bilan birga davlat byudjetini tejash bo'lib hisoblanadi. Bir xonadonga borgan registrator ham aholi sonini, ham o'sha xonadondagi tomorqa, chorva va qishloq xo'jaligi resurslarini so'rab oladi. Bu vaqt va mablag'ni kamida 50% ga tejaydi. O'zbekiston aholi soni ham 38 milliondan oshdi. Ularni sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlashga qancha mahsulot kerakligini bilish uchun faqat odam soni emas, balki yer va chorva resurslarini ham aniq bilish shart. Aholi ro'yxatga olinganda, ularning tomorqasidagi imkoniyatlari ham hisobga olinsa, davlat qayerda issiqxona qurish, qayerda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha aniq rejaga ega bo'ladi. FAO (oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) ro'yxatga olish ishlarini bir vaqtda o'tqazishni tavsiya qiladi. Chunki, aholining yashash joyi uning xo'jaligi bilan shambarchas bog'liq.

2026 yilgi ro'yxatga olish yuqorida qayd etilgan davrlardan farqli ravishda, raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi: ma'lumotlar bazalarini yaratish, GIS xaritalari, biometrik identifikatsiya va elektron monitoring tizimlaridan foydalaniladi. Shunga bog'liq, bu tizim faqat statistika manbai bo'lib qolmasdan, u davlat boshqaruvi infratuzilmasini rivojlantirish va qaror qabul qilish jarayonlarini jadallashtirish vositasiga aylanadi. Bu innovatsion yondashuv ro'yxatga olishning ahamiyatini yanada oshiradi va uni kelajakdagi boshqaruv strategiyalarining ajralmas qismiga aylantiradi. Aholini va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning ahamiyati nihoyatda katta.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 2026 yilning yanvar-fevral oylarida o'tkazilishi belgilangan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy kelajagini belgilovchi strategik jarayon hisoblanadi. Qadimgi davrlarda va o'rta asrlarda aholini ro'yxatga olish juda cheklangan maqsadlarda - asosan soliq yig'ish va harbiy kuchlarni (faqat erkaklarni) hisoblash uchun o'tkazilgan. Bugungi kundagi ro'yxatga olish esa bu tarixiy paradigmadan tubdan farqli ravishda nafaqat statistik ma'lumot yig'ish, balki resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va davlat boshqaruvini ilmiy asosda rejalashtirish vositasidir.

O'rganish natijasida ro'yxatga olishning asosiy natijalari quyidagi ahamiyatga ega bo'ladi:

- Ijtimoiy rejalashtirish: Maktablar, shifoxonalar va infratuzilma obyektlarini aholi soniga muvofiq manzilli qurish imkoniyati tug'iladi.

- Agrar siyosat: 26 million gektar qishloq xo'jaligi yerlari va chorva mollari sonini aniqlash orqali byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlanadi.

- Raqamli transformatsiya: 2026 yilgi ro'yxatga olishda zamonaviy AKT, GIS xaritalari va onlayn platformalardan foydalanish ma'lumotlar sifatini xalqaro darajaga ko'taradi.

Shunday qilib, bu jarayon kelgusi 10 yil uchun mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda asosiy manba bo'lib xizmat qilishiga shubha yo'q.

Adabiyotlar/Литература/References

1. O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF- 5655 Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.09.2025 yildagi PF-173-son
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabrdagi 710-son qarori.
4. G'ulomov, I. (2023). Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri (1897-yilda o'tkazilgan dastlabki tadbir misolida). Ijtimoiy gumanitar fanlar — Tarix, 292–300. Farg'ona davlat universiteti. DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a63
5. Tojiev Z.N. Aholi geografiyasi/darslik/.-Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo", 2020, 298 bet.
6. Utepova G.B "Xalqlar geografiyasi ham demografiya" (o'qiw qollanba). Nókis, NMPI, 2010-jil. 48 bet.
7. Утепова Г.Б., Узакбаев К.К. Рост населения Республики Каракалпакстан и его географические свойства территориальной организации //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
9. ScienceDirect. (n.d.). Population Census.
10. <https://stacker.com/stories/history/how-america-has-changed-first-census>

HUMANSCIENCES.UZ

№ 1 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com